O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60110300-305
2025 yil “10” 09

“TASDIQLAYMAN”
Kattaqo‘rg‘on davlat
pedagogika instituti rektori:
Sh.R.Urakov
2025 yil “10” 09

GARMONIYA. MUSIQA ASARLARI TAHLILI FANINING O’QUV DASTURI

2- kurs
(kunduzgi)

Bilim sohasi:	100 000 - Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000 - Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110300 – Musiqa ta’limi *Kvalifikatsiya: Musiqa madaniyati o‘qituvchisi*

KATTAQO‘RG’ON – 2025

Fan/mavzu kodi G.MAT1305	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 5
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Garmoniya. Musiqa asarlar tahlili.	60	90	150

2. I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o`stirish; musiqa ifodasi tarkibiy qismlari sohasi bo`yicha bilimlar berib, musiqiy asarni o`rganishda uning mazmunini to`g`ri ochishga yordam berishdir. Musiqa asar shaklining tuzilishini asosiy qonunlari bilan tashnishtirish, har xil tipdagi shaklni tahlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji prinsiplari, shaklning qismlarni funksiyasi mavzularning bilimlari bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Fanning vazifasi – talabalar asosiy ifoda vositalarini tushunishlari uchun ularga

- kerakli malaka va bilimlarni berish;
- talabalarning estetik didlarini to`g`ri yo`naltirish;
- talabalarni kompozitorlik ijodining muhim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqaviy til tizimi va garmoniyaning unda egallagan o`rni haqida aniq tushunchalar berish;
- musiqa asar shaklining tuzilishini asosiy qonunlari bilan tanishtirish, har tipdagi shaklni tahlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji prinsiplari, shaklning qismlarni funksiyasi mavzularning bilimlari bo`yicha ko`nikma va malakalarni shakllantirish.
- talabalarning musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish, hamda bu qobiliyatini amaliy ishlarda qo`llay olishga o`rgatishdir;
- talabalarni lad, ritm va uslubiy tuyg`usini tarbiyalash va rivojlantirish.
- musiqiy xotirasini, xalq kuylari va klassik kompozitorlar badiiy boyliklari bilan boyitish.

Xorijiy tajribalarga muvofiqligi

TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi xorijiy OTT tajribasiga muvofiqligi:

Ushbu o‘quv fan dasturi Oli ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi 87-son “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga asosan xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi TOP-300 talik ro‘yxatga kiruvchi Lomonosow Moccow Universiti (QS84) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://ftv.msu.ru/about/

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

Garmoniya. Musiqa asarlari tahlili fanining ma’ruza mashg’ulotlari mavjud emas.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo’yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. GARMONIYA

1-mavzu. Garmoniya haqida tushuncha. Akkordli va akkordsiz tovushlar. To‘rtovozlik tuzilma Garmoniya – bu musiqaning vertikal ifodasi bo‘lib, tovushlarning bir vaqtda uyg‘unlashgan yangrash qonuniyatlarini o‘rganadi. Akkordli tovushlar asosiy garmonik birliklarni tashkil etsa, akkordsiz tovushlar ularni bezab, ohangni boyitadi. To‘rtovozlik (SATB – soprano, alto, tenor, bas) usuli garmoniyaning an’anaviy ko‘rinishi bo‘lib, har bir ovoz mustaqil harakatda bo‘lishi bilan birga umumiy akkord tuzilmasiga xizmat qiladi.

2-mavzu. Asosiy uchtovushliklarning qo‘shilishi. Kuylarni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash Asosiy uchtovushliklar – tonika, subdominanta va dominantalardir. Ular musiqaning barqarorlik va beqarorlik muvozanatini yaratadi. Kuyni garmoniyalash esa shu akkordlar asosida kuyga mos tushuvchi akkordlarni aniqlash, joylashtirish va muvofiqlashtirish jarayonidir. Bu, o‘z navbatida, kuy ifodasining boy va tushunarli bo‘lishini ta'minlaydi.

3-mavzu. Akkordlarning o‘rin almashuvi. Basni garmoniyalash O‘rin almashuv – akkord funksiyalarini saqlagan holda, ularning boshqa shakllari bilan almashtirilishidir (masalan, tonika o‘rniga submedianta). Bu garmonik harakatga rang baranglik baxsh etadi. Basni garmoniyalash esa, kuy yoki akkord harakati asosidagi bas tovushlarning mantiqiy va barqaror harakatini tashkil qilishni o‘z ichiga oladi.

4-mavzu. Tersiya sakramalari. Davriya. Jumla. Kadensiyalar Tersiya sakramasi – bas tovushining kichik yoki katta tersiya masofasida sakrashi orqali garmonik o‘tishlarga boylik baxsh etadi. Davriya va jumlalar esa musiqiy fikrning tarkibiy bo‘laklaridir. Kadensiya esa ushbu bo‘laklarning yakunlanish formasidir va asarning garmonik tamomlanishini bildiradi.

5-mavzu. Kadens kvartsekstakkordi Kvartsekstakkord – kadensiyalarda ishlatiladigan akkord shakli bo‘lib, u odatda subdominanta funksiyasida bo‘ladi. Bu akkorddan keyingi tonik akkord musiqiy fikrni yakunlaydi. Kvartsekstakkord musiqa tili va dramatizmida kuchli ifoda vositasi sanaladi.

6-mavzu. Kuyni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash

Kuyni garmoniyalash esa shu akkordlar asosida kuyga mos tushuvchi akkordlarni aniqlash, joylashtirish va muvofiqlashtirish jarayonidir. Bu, o‘z navbatida, kuy ifodasining boy va tushunarli bo‘lishini ta'minlaydi.

7-mavzu. Kuyni garmoniyalashtirish usullari.

Tonallik aniqlangandan so‘ng har bir tovushning qaysi uchto- vushlikka kirishini ko‘rib chiqish lozim. Masalan, kuy Do major tonallikda yozilgan bo‘lsa, unda: I, III, V (do, mi, sol) pog‘onalarni tonika uchtovushligi bi- lan garmoniyalash mumkin;

8- mavzu. Akkordning o'rin almashuvi.

O‘rin almashuv – akkord funksiyalarini saqlagan holda, ularning boshqa shakllari bilan almashtirilishidir (masalan, tonika o‘rniga submedianta). Bu garmonik harakatga rang-baranglik baxsh etadi.

9-mavzu. Faktura (uslub). Janr. Musiqiy nutqning uzviyligi va qismlarga bo‘linishi Faktura – musiqiy matnning teksturasi bo‘lib, unda ovozlar qanday tuzilganligi aks etadi (homofoniya, polifoniya, monodiyalik va boshqalar). Janr esa asarning mazmuniy va shakliy xususiyatlari asosida belgilanadi (masalan, vals, marş, sonata). Musiqiy nutqning uzviyligi — asar qismlarining bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lishi, qismlarga bo‘linishi esa kompozitsion rivojlanishning bosqichma-bosqich ko‘rinishidir.

10- mavzu. Kadans kvartsekstakkordi.

Davriya, jumla, kadensiya tushunchalari. Kadentsiya turlari. Kadans kvartsekstakkord tuzilishi, funktsional xususiyati va qo'llanilishi. Kvartsekstakkord – kadensiyalarda ishlatiladigan akkord shakli bo‘lib, u odatda subdominanta funksiyasida bo‘ladi. Bu akkorddan keyingi tonik akkord musiqiy fikrni yakunlaydi. Kvartsekstakkord musiqa tili va dramatizmida kuchli ifoda vositasi sanaladi.

11-mavzu. Asosiy uchtovushliklar sekstakkordlari.

Oddiy va murakkab shakllar Oddiy shakllar — ikki yoki uch qismlik tuzilmalardan iborat bo‘lib, ularning har biri yakunlangan musiqiy fikrni ifodalaydi. Murakkab shakllar esa oddiy shakllarning kombinatsiyasi yoki rivojlangan formasi bo‘lib, ular ko‘proq mavzu, kontrast, repriza va rivoj bo‘laklariga ega. Har ikki shakl musiqiy asarning mantiqiy tuzilishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega

12-mavzu. Variatsion shakllar.

Variatsiya — musiqiy mavzuning har xil yo‘llar bilan o‘zgartirilgan takrorlanishidir. Variatsion shakl mavzuning ohangiy, ritmik, garmonik, faktura yoki uslubiy jihatdan qayta ishlanishi orqali ifodalanadi. Bu shakl orqali kompozitor g‘oya doirasida yangilik yaratadi va musiqiy tafakkurni kengaytiradi.

13- mavzu. O’tkinchi va yordamchi kvartsektakkordlar.

Asosiy uchtovushliklar kvartsekstakkordlari to'rt ovozlikda tuzilishi, turlari, tuzim orasida va kadentsiyalarda qo'llanilishi. O‘tkinchi kvartsekstakkord uchtovushlik va uning sekstakkordi orasida joylashadi va kuchsiz hissada ishlatiladi. Bu davraning asosiy xususiyati bas ovozi yuqorilama yoki pastlama pog‘onama-pog‘ona harakatida namoyon bo‘ladi.

14- mavzu. Septakkordlar.

Septakkordni ladning har bir pog‘onasidan tuzish mumkin. Umuman olganda, septakkord uchtovushlikdan tuziladi, uning tarkibida akkord dissonansi — septimasi borligi bilan ajralib turadi. septakkordlarning ifodali xususiyatlari ularning tovushlar tarkibi va funksional ahamiyati bilan uzviy bog‘liq.

15-mavzu. Dominantseptakkord

Dominantseptakkordladning V pog‘onasida tuzilgan to‘rt tovushli akkorddir. Tersiya bo‘yicha joylashgan ushbu akkordning tuzilishi major va garmonik minorda bir xil.

16-mavzu. Dominantseptakkordning aylanmalari.

Dominantseptakkordning aylanmalari, ularning to'rt ovozlikda joylashuvi, yechilishi, qo'llanilishi. Dominantseptakkord va aylanmalarining tonikaga yechilishidagi sakrashlar.

17-mavzu. Akkordsiz tovushlar haqida tushunchalar.

Kuy, ya’ni bir ovoz bilan ifoda etilgan musiqiy fikr musiqaning eng muhim vositasidir. Garmoniya va kuy orasida munosabatlar paydo bo‘ladi. Ayrim kuyning har bir tovushini garmoniyalashti- rib bo‘lmaydi, ko‘pincha kuyning bir necha tovushi bitta akkordga, bitta garmoniyaga to‘g‘ri keladi.

18-mavzu. II pog’ona sekstakkordi va uchtovushligi.

II pog‘ona sekstakkordi keng tarqalgan akkord va u funksional jihatdan yorqin. Uning yorqinligini uchta noturg‘un tovushlar (II- IV-VI) va dominanta bilan umumiy bo‘lgan (II) tovush yaratadi.

II pog‘ona uchtovushligi va sekstakkordi subdominanta gu- ruhiga kiradi.

19-mavzu. Subdominantseptakkord.

Subdominantseptakkord asosiy septakkordlardan biri bo‘lib, ladning II pog‘onasida tuziladi va majorda SII7, minorda SII7 belgilanadi. Ularning tuzilishi tabiiy majorda — minor uchtovushligi va kichik tersiya, minorda — kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiya, chekka tovushlari kichik septimani tashkil qiladi.

20-mavzu. Yetakchi septakkord.

Yetakchi tovushdan tuzilgan septakkordlar yetakchi septakkordlar deyiladi. Uning belgisi DVII7. Bu dominanta funksiyasiga qarashli akkorddir.

Yetakchi septakkordlar ikki xil: kichik va kamaytirilgan bo‘ladi. septakkordlarning tuzilishi: kichik septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiyadan iborat, kamaytirilgan septakkord uchta kichik tersiyadan iborat. Chekka tovushlari katta va kichik septimani hosil qiladi.

2-MODUL. MUSIQA ASARLAR TAHLILI

1-mavzu: Faktura (uslub).

Faktura musiqiy matnning teksturasi bo‘lib, unda ovozlar qanday tuzilganligi aks etadi (homofoniya, polifoniya, monodiyalik va boshqalar).

2-mavzu: Janr haqida umumiy tushuncha, musiqiy janrlar.

Janr esa asarning mazmuniy va shakliy xususiyatlari asosida belgilanadi (masalan, vals, marş, sonata).

3-mavzu: Musiqiy nutqning uzviyligi va qismlarga bo‘linishi.

Musiqiy nutqning uzviyligi asar qismlarining bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lishi, qismlarga bo‘linishi esa kompozitsion rivojlanishning bosqichma-bosqich ko‘rinishidir.

4-mavzu: Oddiy va murakkab shakllar

Oddiy shakllar ikki yoki uch qismlik tuzilmalardan iborat bo‘lib, ularning har biri yakunlangan musiqiy fikrni ifodalaydi. Murakkab shakllar esa oddiy shakllarning kombinatsiyasi

yoki rivojlangan formasi bo‘lib, ular ko‘proq mavzu, kontrast, repriza va rivoj bo‘laklariga ega. Har ikki shakl musiqiy asarning mantiqiy tuzilishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

5-mavzu: Variatsion shakllar

Variatsiya musiqiy mavzuning har xil yo‘llar bilan o‘zgartirilgan takrorlanishidir. Variatsion shakl mavzuning ohangiy, ritmik, garmonik, faktura yoki uslubiy jihatdan qayta ishlanishi orqali ifodalanadi. Bu shakl orqali kompozitor g‘oya doirasida yangilik yaratadi va musiqiy tafakkurni kengaytiradi.

6-mavzu: Rondo va sonata shakllari

Rondo shakli A-B-A-C-A va boshqa ko‘rinishlarda quriladi, unda asosiy mavzu (A) doimo takrorlanadi va kontrast qismlar bilan almashinadi. Sonata shakli esa ekspozitsiya, rivoj va repriza kabi qismlardan iborat murakkab shakl bo‘lib, klassik musiqada keng qo‘llaniladi. Bu shakllar dramatik tuzilma, mavzular o‘zaro aloqasi va rivoj nuqtai nazaridan chuqur tahlilni talab qiladi.

7-mavzu: Vokal shakllar.

Vokal shakllar romans, ariya, xor asarlari va boshqa vokal janrlarni o‘z ichiga oladi.

8-mavzu: Opera shakli

Opera shakli teatr va musiqaning uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, unda dramatik syujet, ariyalar, resitativlar va ansambllar orqali ifoda etiladi. Vokal shakllarda so‘z va musiqa uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

9-mavzu: Simfonik asarlar tahlili.

Jahon musiqasi durdona janrlaridan biri bu simfoniya janri. Yevropa klassik musiqasining eng nodir va eng mukammal janrlari xisoblanmish bu turdagi musiqiy asarlardan mashg’ulot davomida V.A.Motsart, L.V.Bethoven kabi buyuk kompozitorlar simfoniyalarini tinglab tahlil qilish.

10-mavzu: O’zbek kompozitorlarining bolalar uchun yaratgan asarlari tahlili.

O’zbek kompozitorlari ham jahon kompozitorlaridan qolishmagan holda ham professional musiqada hamda bolalar asarlari turkumida salmoqli ijod qilishgan. Bolalar uchun musiqiy asarlar yaratgan Sh.Yormatov, D.Omonullayeva, A.Mansurov, R.Abdullayev kabi bir qator musiqa bastakorlarimizning asarlarini tahlil qilish.

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish bilan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

-konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- manbalar bilan ishlash;

- multimediali taqdimotlar yaratish;
- individual o`quv vazifalar bajarish;
- mavzuga oid topshiriqlarni nota daftarida tuzish;
- nota daftarida berilgan kuy, bas ovozini garmoniyalashtirish;
- fortepianoda akkordlar ketma-ketlik (tsifrovka)larini chalish;
- asarni tahlil qilish;
- asar nota matni bilan ishlash;
- bir, ikki ovozli namunalarni solьfedjio qilib kuylash;
- musiqa elementlarini tovushdan va tonalliklarda tuzib kuylash;
- musiqa elementlarini tinglab aniqlash;
- intervalli va akkordli ketma-ketliklarni kuylash.

Ta’lim yo`nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

- Juft ovozlarning birgalikdagi harakatlari
- Kuylarni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash va o’rin almashuv texnikalarini qo’llash
- Basni garmoniyalash Kuylarni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalashda tersiya sakramalarini aniqlash va qo’llash
- Kadanskvartsekstakkordini qo’llash
- Oddiy va murakkav shaklli asarlarni tahlil qilish
- Variatsion shaklda yozilgan asarlarni tahlil qilish
- Rondo va sonata shaklida yozilgan asarlarni tahlil qilish
- Vokal shakllar va opera shakllarini tahlil qilish

3. V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilish kerak:

Talaba bilishi kerak:

• musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladlari, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog`onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og`ishma, musiqa bezaklari;

• garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funktsiyalarini, stilistik hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil qilish usullari;

• musiqiy shaklning muhim elementlari; musiqaning asosiy rivojlantirish printsiplari; shakl qismlarining funktsiyalari;

bayon etish turlari va har bir shakl turining tuzilish qonun qoidalari;

• solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, bir va ikki ovozli kuylarni sof intonatsiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, musiqa elementlarini tinglab aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalari haqida tasavvurga ega bo`lishi; (bilim)

• major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlar yechilishlarini, har xil tovushlardan xalq musiqa ladlari tovushqatorlarini,

	berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda va fortepianoda tuzish; • o'tilgan akkordlarni to`rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni qo`shishda ovoz yo`nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish; • berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko`rsatib, har xil tipdagi shakllarning o`ziga xos xususiyatlarini ajratish; har-bir asosiy qismni va qismlarning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi; musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish • kuyning ayrim elementlari o`zaro musobatlari, ko`pincha xalq musiqa ijodidan keng o`rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo`linishini xis etish, turli hildagi major va minor gammalar, • intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash va tinglab aniqlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; • intervallar, akkordlar, gammalar tuzish; uncha katta bo`lmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi aniqlab, obrazlar xarakterini tahlil qilish; • berilgan kuy yoki bas ovozini garmoniyalash; akkordlar ketma ketliklarini (tsifrovka) davriya shaklida chalib berish; • oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmoniya jihatidan tahlil qilish; har qanday shakldagi asarni tahlil qilish; • sof, ma'noli, to`g`ri me'yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e'tibor bergan holda bir, ikki ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo`lidagi asarlar namunalarini solfedjiolash, ularni eshitib turib notaga solish, davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar kuylash; xromatik tovushlari mavjud bir tonallik va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar kuylash; interval, akkord, ladlarni tinglab aniqlash; berilgan kuyni transpozitsiya qilib kuylay olish; bir va ikki ovozli melodik diktant, intervalli diktantlar yozish ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** *ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* *interfaol keys-stadilar;* *diologik yondoshuv* *SWOT tahlili* *Wenn diagrammasi*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1.Q.Rahimov "Musiqaning elementar nazariyasi" 2007-yil. 2.V.A.Vaxromeyev "Muzikaning elementar nazariyasi" 1980-yil

	3. Q.Rahimov Musiqaning elementar nazariyasi bo`yicha mashq va vazifalar to`plami 2005-yil 4. G.A.Ibraximjanova,L. A. Urmanova,M.X.Xodjayeva,F. N.Xalilov "Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya" 2017-yil. 5.Sami Aziz o`g`li, N.Azizov, F.Azizov "Musiqaning elementar nazariyasi" 2005-yil **IX. Qo`shimcha adabiyotlar:** 1. A.Bahriyev "Musiqaning elementar nazariyasi" BuxDU-2011 2. Б.Калмыков, Г.Фридкин. Сольфеджио часть I одноголосие. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI** 1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni. **Axborot manbaalari** 1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 4.www.pedagog.uz 5. http://www.ziyonet.uz/ 6. http://elibrary.ru

7.	Fan dasturi Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Radjapov A – "Amaliy fanlar va sport" kafedrasi o'qituvchisi _____ *(imzo)*
9.	**Taqrizchilar: SH.Mustafayev** –Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti prorektori yoshlar masalalri va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rin bosari(ichki) **Mo'minov. A** - Samarqand ixtisoslashtirilgan san`at maktabi Musiqa nazariyasi kafedrasi mudiri (tashqi)

Prorektor: **dots. S.M.Elmonov**
Fakultet dekani: **prof. A.I.Saidov**
Kafedra mudiri: **dots. S.S.Igamov**